



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR USTIDA ISHLASHDA DIDAKTIK MATERIALLARNI TANLASH MEZONLARI

To‘rayeva S.S.

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktranti

Tayanch so‘zlar: frazeologiya, frazema, ibora, kompetensiya, lingvistik-nutqiy kompetensiya, turg‘un birikma, topshiriq, didaktik material, darslik, kommunikativlik, izchillik, qiyoslash va baholash, tarbiyaga yo‘nalganlik, mezon.

Ключевые слова: фразеология, фразема, компетентность, лингворечевая компетенция, фиксированное сочетание, задание, дидактический материал, учебник, коммуникативность, системность, сравнение и оценка, учебная направленность, критерий.

Key words: phraseology, phraseme, expression, competence, linguistic and speech competence, fixed combination, task, didactic material, textbook, communication, consistency, comparison and evaluation, educational focus, criterion.

Tilimiz juda boy va rang-barangdir. Ammo shu boylikni chuqurroq o‘zlashtirmaganligi tufayli ko‘pchilik ixcham, ifodali va obrazli nutqni ta‘minlovchi so‘z yoki iborani topolmay qoladi. Holbuki, har kimning so‘z zaxirasida ayrim-ayrim so‘zlarga ajralmaydigan, qat‘iy va o‘zgarmas tarkibga ega bo‘lgan, muhimi, xotirada bir butun holda doimo saqlanadigan turg‘un so‘z birikmalari – frazeologik iboralar mavjud. Bu tilning muhim obrazli vositalari jumlasiga kiruvchi va badiiy nutqning bezagi hisoblanmish iboralarning obrazli ko‘chma ma‘nolarini, qiziqarli leksik-grammatik tabiatini, nutqdagi boy emotsional-estetik funksiyasini bilmaslikdan kelib chiqadi [1; 4-b.]. Tilning mana shu oltin xilqatlaridan keng jamoatchilik nutqida unumli qo‘llashini targ‘ib qilish, tashkil qilish ona tilini o‘rgatuvchilar oldidagi eng dolzarb vazifadir. Bu xayrli ishda tamal toshi ta‘lim poydevori – boshlang‘ich ta‘lim davridayoq qo‘yilishi lozim.

Frazeologik iboralar yoxud iboralar umumiy, yaxlit ma‘noni tashkil etgan komponentlardan tuzilib, boshqa so‘zlar bilan munosabatda bo‘luvchi va xotirada doimo bir butun holda saqlanuvchi barqaror til birliklari hisoblanadi. [1; 4-b.]



Kichik yoshdagi o‘quvchi nutqini iboralar bilan boyitishning eng asosiy quroli bu – didaktik materiallar. O‘quvchi maktabga ilk qadam qo‘ygan kuniyoq o‘ziga xos, rang-barang, qiziqarli maktab darsliklarini qo‘liga oladi. Darsliklardagi yorqin ranglar, tasvirlar, yozuvlar unda o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani uyg‘otadi. Bunda savod kitobi – Alifbe darsligi alohida o‘rinda turadi. Savodi chiqqan o‘quvchi ona tili va o‘qish savodxonligi kitoblarida berilgan matnlarni, mashq va topshiriqlarni qiynalmay o‘qiy boshlaydi. Bu darsliklarning bosh maqsadi kichik kitobxonni tarbiyalash, unda og‘zaki va yozma nutqni takomillashtirish, nutqini tilning badiiy vositalari bilan boyitishdan iborat. Badiiy til vositalari orasida iboralar nutqni ta’sirchan, bo‘yoqdor va jonli qilishi bilan ajralib turadi. Solishtiring: “Boring, o‘z olamshumul g‘oyangizni isbotlang”, deb, kovushimni maktabga to‘g‘rilab yuborishdi. E. Malik, “7-“A”da...”. “Boring, o‘z olamshumul g‘oyangizni isbotlang”, deb, meni maktabga yuborishdi. Berilgan misollardagi birinchi gap jonli, ta’sirchan jozibadorligi bilan o‘ziga xosdir. Ikkinchi gapdagi fikr oddiy, hissiy-emotsionallikka ega emas.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi frazeologik birliklarni o‘rgatishda tanlanadigan materialning didaktik va uslubiy jihatlarini doim inobatga olish lozim. Chunki o‘quv materialining hammasi ham iboralarni o‘rgatishga mos bo‘lmasligi, har qanday didaktik material mazmuniga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Bu ishda avvalo boshlang‘ich sinflarda o‘rgatiladigan iboralarning aniq lug‘atini tuzib chiqish zarur. Bolalar adabiyoti asarlari va darsliklarda kiritilgan matn tarkibidagi iboralarni tanlab, o‘quvchilar uchun iboralarning kichik lug‘atini tuzish kerak bo‘ladi. Shu davrga qadar o‘zbek ona tili ta’limida qaysi iboralarni o‘quvchi nutqida faollashtirish zarurligi borasida yetarli tavsiya va takliflar ishlab chiqilmagan. Faqat o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish, so‘z ma’nolari ustida ishlashga oid tavsiyalar tilchi-metodist olimlar tomonidan ishlab chiqilgan metodika asosida olib borilgan.

K. Qosimovanning “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli qo‘llanmasida lug‘at ustida ishlashning quyidagi asosiy to‘rt yo‘nalishi belgilab berilgan:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8-10 ta yangi so‘zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so‘zni qo‘shishi, ya’ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim.

2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish: 1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirishi, ya’ni shu so‘zlarni matnga kiritish, ma’nosi yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma’nosiga aniqlik kiritish; 2) so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish; 3) so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish; 4) **ayrim frazeologik birliklarning ma’nosini o‘zlashtirish.**



3. Lugʻatni faollashtirish, yaʼni oʻquvchilar maʼnosini tushunadigan, ammo oʻz nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lugʻatidagi soʻzlarni faol lugʻatiga oʻtkazish. Buning uchun shu soʻzlar ishtirokida soʻz birikmasi va gaplar tuziladi, ular oʻqiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan soʻzlarni oʻquvchilar faol lugʻatidan nofaol lugʻatiga oʻtkazish. Bunday soʻzlarga bolalarning nutq muhiti taʼsirida oʻzlashib qolgan adabiy til meʼyoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va soʻzlashuv tilida qoʻllanadigan sodda soʻz va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid soʻzlar kiradi. Adabiy til meʼyori degan tushunchani oʻzlashtirgach, oʻquvchilar yuqorida izohlangan soʻzlar oʻrniga adabiy tildagi soʻzlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid soʻzlar, soʻzlashuv tilida ishlatiladigan sodda soʻz va iboralar oʻquvchilarning faol lugʻatidan chiqib keta boshlaydi [2; 309-b.].

K. Qosimova tavsiya etgan ushbu usul ayni damda ham oʻqituvchilar tomonidan dars jarayonida samarali qoʻllanilib kelinmoqda, shu davr mobaynida yaratilgan darsliklar uchun materiallarni tanlashda ham yuqoridagi mezonlarga amal qilinmoqda. Yaʼni, oʻquvchi lugʻatini boyitishning yoshiga mos xususiyatlariga asoslangan badiiy asarlar, topshiriq va mashqlar tizimidan foydalaniladi. Oʻquvchilar lugʻati va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asar hisoblanadi.

Oʻquvchilar lugʻati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi: *atrofni oʻrab olgan muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning oʻyini va oʻqish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish* [2; 310-b.].

Xuddi shu oʻrinda R. Safarova muallifligida yaratilgan kitobda [3] ham lugʻat ustida ishlashning dolzarbligi haqida quyidagilar aytib oʻtilgan: Lugʻat ustida ishlash va oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish zarur masala, lekin bunda aniq meʼyorga amal qilish kerak. Mashq va topshiriqlar uchun matn tanlashda oʻquvchilarning yosh xususiyati va idrok etish qobiliyati hamda soʻz boyligini hisobga olish zarur. Bundan tashqari, oʻzlashtirilishi nazarda tutilgan soʻz va iboralar ularning kundalik faoliyatida qoʻllanilishi lozim.

Oʻqish va ona tili darslarida asar mazmunini chuqur va atroflicha tahlil qilish nutq oʻstirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarni oʻqish, tinglash, tahlil qilish va soʻzlab berish oʻzaro bogʻliq boʻlib, bularning barchasi bir butunlikni tashkil etadi. Oʻqish va ona tili darslarida oʻquvchilar nutqini oʻstirish vositasi sifatida didaktik materiallar tanlab olinadi.

Zamonaviy didaktik materiallar qanday boʻlishi kerak ekanligi borasida qator didakt olimlar izlanishlar olib borgan. Didaktik materiallarning mazmun va mohiyatiga koʻra ikki guruhga ajratish mumkin:



Birlamchi didaktik materiallar – zamonaviy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv dasturlari;

Ikkilamchi didaktik materiallar – bolalar adabiyoti asarlari, ko‘rgazmali qurollari, o‘quv (izohli, frazeologik, imlo, sinonim, antonim) lug‘atlari, elektron ta‘lim resurslari (multimedia va mobil ilovalar, audio va video matnlar), o‘quv topshiriqlar tizimi, metodik yordam sifatida nashr qilingan metodik qo‘llanmalar.

Iboralarni o‘quvchi nutqida faollashtirish maqsadida til materialini tanlash bo‘yicha berilgan metodik tavsiyalarni tahlil qilish va kichik yoshdagi o‘quvchilar nutqida faollashtirish mumkin bo‘lgan iboralar qatorini tuzishda tanlanadigan didaktik mezonlarni ajratib olish zarur. O‘quvchi nutqida iboralarni faollashtirishda didaktik materiallarni tanlashda quyidagi mezonlar tanlab olindi.

Kommunikativlik mezon – ona tili ta‘limida o‘quvchilarning kommunikativligi, ularning erkin muloqotga kirisha olishi, fikrini mustaqil bayon qila olishi bilan tasniflanadi. Ona tili mashg‘ulotlarida asosiy e‘tibor o‘quvchilardagi ijodiy fikr mahsulini mustaqil va izchil bayon etishga, so‘z boyligini oshirish va matn yaratish ko‘nikmalarining shakllantirishiga qaratilishi lozim

Nutqda iboralarni tez-tez takrorlab turish. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darsliklariga kiritilgan matnlar tahlili ularda o‘quvchi yoshiga mos so‘z, ibora va maqollar juda ko‘p uchrashini ko‘rsatadi. Tilning turg‘un birikmalari – maqol va iboralar ustida ishlash jarayoni alohida tayyorgarlikni talab etadi. Chunki maqol va iboralar aksar hollarda ko‘chma ma‘noda keladi. O‘quvchi maqolni yodlagan bo‘lsa-da, undagi ko‘chma ma‘nolikni anglash unga qiyinlik tug‘diradi. Shu o‘rinda o‘qituvchi maqol va iboralardagi so‘zlarning asl ma‘nosi va ular birgalikda ifodalab kelgan ko‘chma ma‘no ustida ishlaydi.

Nutqda to‘g‘ri foydalanish. Bu mezon o‘quvchining yosh psixologiyasi va fiziologiyasiga mos materialni tanlash bilan asoslanadi; kichik maktab yoshidagi o‘quvchilari tilning tasviriy vositalarini idrok etishida uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. O‘quvchilardagi psixologik jihatlarni ikkiga bo‘lish mumkin: birinchisi, o‘quvchi tafakkurining aniqligi, ikkinchisi, turg‘un birikmalardagi majoziy ma‘noni idrok etishi.

Kognitiv qobiliyatni rivojlantirish. Badiiy til vositalari orasida iboralar nutq ta‘sirchanligini ta‘minlovchi eng faol til birligi hisoblanadi. Iboralar nutqda tayyor holda qo‘llaniladi. Ular shaxs va narsaning holati va xatti-harakatiga bo‘lgan munosabatni emotsional holda baholash funksiyasini bajaradi. Iboralar nutqni jonli va bo‘yoqdor qiladi. Nutqda iboralardan unumli foydalanish o‘quvchining kognitiv qobiliyatiga bog‘liq. Aynan shu maqsadda tanlanadigan didaktik material o‘quvchida kognitiv qobiliyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi shart.

Qiyoslash va baholashga oid didaktik materiallar. Zamonaviy ta‘limda bolani kichik yoshidan boshlab vaziyatni qiyoslash va baholashni nutq orqali ifodalashga



o'rgatish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda shu mezon vositasida o'quvchi tasavvurini kengaytirish, unda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nazarda tutiladi. Keyingi yillarda shaxsning til bilish darajasini baholashga doir topshiriqlar tarkibida qiyoslash va baholash ko'nikmasini aniqlashga yo'naltirilgan savollar tizimidan foydalanilmoqda. Vaziyatni baholashni o'rgatishda iboralarning o'rni beqiyos. Iboralar o'zidagi majoziylik va yumor bilan har qanday shaxs diqqatini tortish xususiyatiga ega.

Ta'lim-tarbiyaga yo'nalganlik. O'rganilayotgan badiiy asar matnini tahlil qilish jarayonida iboralar ma'nosi ustida alohida ishlash lozim, chunki iboralar orqali majoziy ma'noni, o'qilgan asar mazmunini, muallif ilgari surgan g'oyani ochib berish kerak bo'ladi. Bunda tilning turg'un birikmalari – maqol, matal va iboralarda aks etgan xalq hikmatlari mazmunini izohlash, anglatish zarur.

Izchillik va uzluksizlik. Frazеologik birliklarni o'qitish tizimini maktabgacha ta'lim jarayonidan boshlash lozim. Bunda tilning eng sodda turg'un birikmalari tanlab olinadi. Mazkur ish boshlang'ich va yuqori sinflarda bosqichma-bosqich davom ettiriladi. Bu uch bosqichda boshlang'ich ta'lim jarayoni yetakchilik qiladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda badiiy adabiyot asarlariga va kattalar bilan bo'ladigan muloqotga bo'lgan qiziqish yuqori turadi. Ularning qiziquvchanligi frazeologik birliklarni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyani uyg'otadi. Ona tili va o'qish darslarida foydalaniladigan didaktik materiallar to'plamini tanlashda o'zbek tilining shu jihatlariga ham e'tibor qaratish lozim.

Iboralarni o'quvchining faol lug'atiga kiritishda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida turli mavzularda berilgan o'quv topshiriqlaridan ham unumli foydalanish mumkin: mavzuni takrorlash, yangi mavzuni mustahkamlash va umumlashtirish, grammatik tushunchalar ustida ishlashda iboralarga oid mashq va topshiriqlar berib boriladi.

Jumladan, "So'z birikmasi" mavzusida: **1-topshiriq.** Faqat ot birikmali iboralar qatorini tuzing, bunda iboralar lug'atidan foydalaning: *ammamning buzog'i, og'zi qulog'ida, anqoning urug'i, ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, esi joyidami, dumi xurjunda, dili vayron, bir zumda, boshi oqqan tomon, to'rt tomoni qibla, bosh og'rig'i, devor-darmiyon, dami ichida, gapning po'stkallasi* kabi. **2-topshiriq.** Iboralar lug'ati yordamida faqat olmoq fe'li ishtirokidagi fe'l birikmali iboralar qatorini tuzing. Masalan: *tilga olmoq, qo'lga olmoq, ko'z ostiga olmoq, avj olmoq, fotiha olmoq, ko'ziga yosh olmoq, ko'nglini olmoq, oyog'ini qo'lga olmoq.*

Iboralardagi ko'chma ma'no va obrazlilik xususiyati bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Aynan shu qiziqishni rivojlantirish va o'rinli foydalanishda tilni o'qitishga oid muammoli vaziyatlar, ko'rgazmali qurollar, turli leksik mashq va topshiriqlardan muntazam foydalanish kerak bo'ladi. Bu kabi topshiriqlarni bajarishda o'quvchi iboralarni jonli nutqda tez-tez kuzatishlari, eshitishlari, ularni tilning boshqa



birliklaridan farqlay olishlari, iboralar ishtirokidagi matnlarning obrazlilikini vizual tarzda kuzatishlari, ularni nutqda to'g'ri va faol qo'llashlari, gaplar tuzishlari shart. Hikoya, insho, matn tahrirlashda iboralarni qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida iboralar bilan ishlash o'quvchining nutqiy ko'nikmasini rivojlantiradi, mavhum fikrlashni shakllantiradi, shuningdek, tadqiqotchilik faoliyatini shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. Rafiyev A. R., Iboralar – nutqimiz ko'rki. – T.: Uzbekistan, 1985. – 22 b.
2. Qosimova K va b. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim alabarlari uchun darslik): Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh.– T.: «NOSHIR», – 2009, 352 b.
3. Safarova R. va b., O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tadbiq etish yo'llari. Risola, T.: «Fan», 2005. – 255 b.
4. Ernazarov G'. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish uslubiyoti./Pedagogika yo'nalishidagi kollejlarining 1-bosqich talabalari uchun o'quv qo'llanma/Ernazarov G'.;O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish in-ti. – T.: “ILM – ZIYO”, 2005. – 136 b.
5. Aydarova U.B., Azizova N.K., Toirova M.E., O'qish savodxonligi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik, II qism. / U. Aydarova, N. Azizova, E. Toirova. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 80 b.
6. Аъламова М. Т. Нутқда акс этар бир олам бойлик.– Т.:Ўзбекистон, 1988. – 38 б.
7. Абдураимова М. Она тили дарсларида ўқувчилар нутқини қўмакчили бирикмалар билан бойитиш: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 56 б.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang'ich sinflarda frazeologik birliklarni o'qitish tizimi yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kundalik muloqotda iboralarga juda ko'p duch kelsa-da, ularning ma'nosini tushunmaydi va natijada mazmunini noto'g'ri talqin qilishadi. Shu sabab o'quvchilarga iboralarni o'rgatishda didaktik materiallar to'g'ri tanlansa, iboralarni o'zlashtirish darajasi sifatli bo'ladi. Maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan o'quv materiallari asosida iboralarni o'qitishning didaktik mezonlari ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описана система обучения фразеологизмам в начальных классах. Учащиеся младших классов часто сталкиваются с выражениями в повседневном общении, но не понимают их значения и, как следствие, неверно истолковывают их значение. По этой причине, если дидактические материалы при обучении учащихся фразам выбраны правильно, уровень усвоения фраз будет качественным. В статье на основе учебных материалов, приведенных в учебнике родного языка и грамотности чтения, разработаны дидактические критерии обучения фразам.

SUMMARY

The article describes a system for teaching phraseological units in primary school. Primary school students often encounter expressions in everyday communication, but do not understand their meaning and, as a result, misinterpret their meaning. For this reason, if didactic materials for teaching phrases to students are chosen correctly, the level of assimilation of phrases will be of high quality. In the article, based on the educational materials given in the textbook of the native language and reading literacy, didactic criteria for teaching phrases are developed.